



LINGVODIDAKTIKANING DOLZARB MUAMMOLARI

Toshkent – 2024



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI

TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“LINGVODIDAKTIKANING DOLZARB MUAMMOLARI”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari

2024-yil 16-may

Toshkent – 2024



UDK: 37.017.94:811 (063)

Lingvodidaktikaning dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Elektron nashr. – Toshkent, 2024. – 427 b.

Mas'ul muharrir:

K. Mavlonova – pedagogika fanlari doktori, dotsent.

Taqrizchilar:

R.Niyozmetova

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbek adabiyoti ta'limi kafedrası professori,
pedagogika fanlari doktori.

M. Sobirova

Namangan davlat pedagogika instituti professori,
pedagogika fanlari doktori.

To'plovchi va nashrga tayyorlovchilar:

M. Yuldasheva

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Ona tili ta'limi kafedrası o'qituvchisi

M. Alimbekova

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Ona tili ta'limi kafedrası o'qituvchisi

Sh.To'rayeva

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Ona tili ta'limi kafedrası o'qituvchisi

D. Normuminova

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Ona tili ta'limi kafedrası o'qituvchisi

X. Baxtiyorova

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Ona tili ta'limi kafedrası o'qituvchisi

X. Navro'zova

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Ona tili ta'limi kafedrası o'qituvchisi

Ushbu to'plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta'limi fakulteti Ona tili ta'limi kafedrası tomonidan 2024-yil 16-mayda "Lingvodidaktikaning dolzarb muammolari" mavzusida o'tkazilgan respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallaridan tashkil topgan.

Nilufar Mirsaidova	
O'zbek folklori asarlarining to'planishi va yozib olishi tarixiga doir	295
Maxliyo To'raqulova	
O'zbek tazkiranavisligining o'ziga xos xususiyatlari	300
Malika Jazilova	
Matn ustida ishlash o'quvchilarning nutqini o'stiradigan vositalardan biri sifatida	302
Nafosat Boboqulova	
O'quvchilarning adabiy-nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda metodlar samaradorligi	306
Nurzod Norqulov	
Xoja hikoyatlarining yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati	311
Maxmuda Yuldasheva	
Alisher Navoiyning "Xamsa"sidagi hukmdorlar xarakterini evristik yondashuv asosida o'rgatish usullari	315
Dilafruz Meliboyeva	
O'quvchilar mutolaa madaniyatini oshirish yuzasidan mulohazalar	321
Shahnoza Mansurova	
"Salomon va Absol" obrazlarining qiyosiy-tipologik tahlili	324
Bonu Qurbonova	
Ulug'bek Hamdamning "Na'matak" romanini badiiy tahlil qilish metodikasi	330
Gulira'no Qarshiboyeva	
She'riy maktublarda ifodalangan badiiy san'atlar (Muqimiy maktublari misolida)	334
Gulzoda Mambetsaburova	
Yoshlar kamoloti yo'lida	338
O'g'iloy Ikromova	
Maktab ta'limida maishiy ertaklarni o'qitishga doir ayrim mulohazalar (Aka-uka Grimm ertaklari misolida)	340
Gulruh Abdukadirova	
Langston Hughes and his poetry	343
Umidaxon Jumanazarova	
Anvar Obidjonning poetik mahoratini adabiy ta'lim klasteri asosida o'qitish	347

ALISHER NAVOIYNING "XAMSA"SIDAGI HUKMDORLAR XARAKTERINI EVRISTIK YONDASHUV ASOSIDA O'RGATISH USULLARI

Maxmuda Yuldasheva
ToshDO'TAU tayanch
doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada ijod maktablarida Alisher Navoiy dostonlarini o'rganishda, dostonlardagi podshohlar obrazini hamda xarakterlarini o'rgatishda evristik yondashuv usullari orqali kichik tadqiqotlar o'tkazish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: *evristika, evristik yondashuv, hukmdor, xarakter, metodlar, kuzatish metodi, tadqiqot usullari, ijobiy obrazlar, salbiy obrazlar.*

Adabiyot fani o'qituvchilarining asosiy vazifalaridan biri barcha o'quvchilarning ijodiy faoliyati, ijodiy qobiliyati va ijodiy individualliklarini har tomonlama rivojlantirish hamda zarur shart-sharoitlarni yaratishni ta'minlashdan iborat bo'lib qolmay, shu bilan birga muayyan sohalaridagi qiziqishlarini, intilishi va qobiliyatlarini aniqlash va bundan keyingi rivojlanishlari uchun imkoniyatlarni yaratib berishdan iborat. Buning uchun o'quvchilarning ijodiy individualliklari, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda foydalaniladigan shakl, metod va vositalarning ahamiyati, ta'sir darajasiga alohida e'tibor qaratish lozim. Bu jarayonda esa o'qituvchining sa'y-harakatlari muhim ahamiyatga ega. Sababi o'qituvchi ta'lim oluvchilarni ijodiy faoliyatlarini rivojlantirishga oid kreativ fikrlashga o'rgatishi, dars jarayonida hamkorlik faoliyatini vujudga keltirishi, bilishga doir eng maqbul innovatsion texnologiyalardan, natijaviy zamonaviy metodlardan, va asosiysi, eng ilg'or sinalgan shakl va vositalardan foydalanishi o'quvchilarning individual ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda eng samarali amaliy ish hisoblanadi.

Evristik kuzatish metodi o'quvchilarga kuzatish yordamida bilimlarni o'zlashtirishga erishish, ularni konstruksiyalash imkonini beradi. Kuzatish maqsadga yo'naltirilgan faoliyat turi sifatida o'quvchilarning idrokini charxlab, turli yo'nalishdagi obyektlar haqidagi nazariy bilimlarni o'zlashtirishga ularni tayyorlaydi. Kuzatish bilimlar manbai, ularni o'zlashtirish yo'li hamda turmushdagi voqelikni anglash usuli hisoblanadi. Kuzatish faoliyatini amalga oshiradigan o'quvchilar shaxsiy natijalarni qo'lga kiritadilar. Bunday natijalar sirasiga:

- kuzatish jarayonida o'zlashtirilgan axborotlar;
- shaxsiy harakatlar va his-tuyg'ular majmui kiradi.

O'quvchilarning ijodiy faolligini rivojlantirishda hamda ularni adabiyot faniga qiziqtirishda o'qituvchining didaktik faoliyati muhim ahamiyatga ega va u quyidagi usullarni o'z tarkibiga oladi: — — — — —

- o'quvchilarning ijodiy topshiriqlarni bajarish bo'yicha mustaqil ishlari;
- elementlarni yangi vaziyatga o'tkazish bo'yicha mashqlarni bajarish;
- ijodiy faoliyatni izlash;
- odatiy xayolotni qabul etish.


Adabiy asarlarni o'rganishda kuzatish usuli o'quvchiga nafaqat bilimlar beradi va tarbiyalaydi, balki aqliy faoliyatga ham yo'naltiradi. Ushbu usul xotirani, kuzatuvchanlikni, bilish jarayonini, tasavvur va hissiyotni faollashtirishga imkon beradi. Asardagi obrazlar xarakterini kuzatish davomida har bir o'quvchining individual jihati namoyon bo'ladi. Badiiy adabiyot, so'z san'ati san'atning boshqa turlari orasida alohida o'ringa, mavqega ega bo'lib, u o'quvchini so'z sehri bilan o'ziga maftun etadi. Shunday ekan, adabiyotni o'qish, uning eng nozik qirralarini anglash inson evristik faoliyatining oliy ko'rinishidir. Masalan, adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo'ldoshev: "His etilmagan, anglanmagan go'zallik ma'naviyat shakllanishiga xizmat qila olmaydi. Shuning uchun ham adabiyot o'qitishda badiiy asar tahlili alohida mavqega egadir, - deb ta'kidlaydi [Qozoqboy Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosh, 2016: 12]. — — — — —

Ijod maktablarining 7-11-sinf o'quvchilarini ijodkorlikka yo'naltirish ishlari turli shakllarda tashkil etilishi mumkin. O'quvchilarda ijodkorlik kompetensiyasini shakllantirish bir qator ish usullarini tizimlashtirishni talab etadi. Bular: muammoli ta'lim, tadqiqot metodi, loyiha metodi, ijodiy topshiriqlar, tadqiqot topshiriqlari va adabiy-nazariy tushunchalarni amalda qo'llay olish bilan bog'liq muammolarni hal qilish kabilardan iborat. Qayd etilganlar adabiy materiallar ustida ishlash barobarida global tarmoq imkoniyatlari: ma'lumotlarni izlash, ijtimoiy tarmoqlar va bloglardagi forum va seminarlarda muloqot qilishni ham ko'zda tutadi. — — — — —

Ijod maktablarining 7-, 8- va 10-sinflarida Navoiy hayoti va ijodi o'rganiladi. 7-sinfda Navoiyning qit'alari va fardlari, 8-sinfda shoirning g'azallari, 10-sinfda "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Saddi Iskandariy" dostonlari bilan tanishadilar. Yuqoridagi mavzu va asarlar har xil sinflarda o'quvchilarning yosh xususiyatlari va intellektual imkoniyatlarini hisobga olgan holda taqdim etilgan. Ushbu jadvaldan ko'rinadiki, maktab adabiy ta'limida epik turga mansub deyarli barcha janrlarga murojaat qilingan. O'rganish uchun darslikka kiritilgan epik turga mansub bu asarlarning barchasi voqealarning izchil bayoniga hamda tasvirda tafsilotlarning ustuvorligiga va bir qator obrazlar tizimiga ega. Asar qahramonlarining xarakterini ochishda, ularning adolatli yoki zolim sifatidagi qirralarini ochishda quyidagi usullardan foydalanish mumkin. — — — — —

"G'oyaviy charxpalak" usuli.

Sinf 2 guruhga bo'linadi. Har bir guruhga quyidagi avvaldan tayyorlangan chizma tarqatiladi. 1-guruhga "Xamsa"dagi adolatli hukmdorlarni yozib chiqishadi. 2-guruh esa asardagi zolim podshohlarni yozishadi. Taqdimot jarayonida har bir guruh a'zolari asardagi qahramonlarni qaysi jihatlariga ko'ra adolatli yoki zolim hukmdor sifatida tanlaganlariga misol keltirib o'tadilar. Bu usulni qo'llash natijasida o'quvchilar asar qahramonlarining o'ziga xos xarakterlarini kichik tadqiqotlar natijasida ochadilar.



Asardagi obrazlarni xarakter xususiyatiga ko'ra tadqiq etish bo'yicha quyidagi metodni ham qo'llash mumkin.

“Munosibini toping” usuli.

Bu usulda o'quvchilarga quyidagi 3 ustunli jadval tarqatiladi. Birinchi ustunga "Xamsa" asaridagi hukmdorlar nomi keltiriladi. O'quvchilarga ikkinchi ustunda ushbu qahramon aynan qaysi dostonida keltirilganligini, uchinchi ustunga esa

Alisher Navoiy obrazga qay maqsadda murojaat qilganligini, masalan, o'rnak, ibrat sifatidami, yoki ularning noto'g'ri xatti-harakatlari oqibatida xulosa chiqarish lozimligi uchun tanqid ma'nosida kelganligi haqida yozish topshirig'i beriladi.

O'quvchilar 4-ustunni to'ldirishda asar matni bilan ishlaydilar. Bu jarayonda tadqiq etilgan hukmdorlarni asarda keltirilgan ta'riflarini topib yozadilar. Ushbu usul orqali o'quvchilar darslik bilan, umuman olganda har bir doston matni bilan ishlaydilar. Bu jarayon natijasida o'quvchilar doston qahramonlarini yaqindan taniy boshlaydilar. Namuna sifatida ushbu jadvalni ko'rib chiqamiz.

“Xamsa” asaridagi hukmdorlar nomi	Qaysi dostonda uchraydi	Obrazga qay maqsadda murojaat qilingan	Asarda berilgan ta'rif
Sulton Husayn	“Hayrat ul-abror”	O'rnak	Qullug'u xonlarga kelib farzi ayn, Xonlara shahlar shahi Sulton Husayn.
Bahrom	“Sab'ai sayyor”	Tanqid	Buyla tuhmatki, aysh uchun Bahrom Yasadi yeti qasr surgali kom.
Chengiz	“Sab'ai sayyor”	O'rnak	Anga Chengiz ulug' ato kelgan, Anosi xud Alonquvo kelgan.
Jamshid	“Sab'ai sayyor”	Ibrat	Maskaning bo'lsa masnadi Jamshid, Qadahing bo'lsa sog'ari xurshid.
Nushirvon	“Sab'ai sayyor”	O'rnak	Anda Nushirvon kerak boqqay, Boshini erg'alib ovuch qoqqay.
Yazdajurd	“Sab'ai sayyor”	Tanqid	Bu sifat keldi nisbat ichra tamom, Tavr aro Yazdajurd ila Bahrom.

Nu'mon	"Sab'ai sayyor"	Ibrat	Shoh Nu'mon atobek o'ldi anga, Shafqat ichra atodek o'ldi anga.
Kayumars	"Saddi Iskandariy"	Ibrat	Alar peshvosi Kayumarsi rod, Kim ul qo'ydi taxt uzra oyini dod.
Hushang	"Sab'ai sayyor"	O'rnak	Elgakim berdi charx uza avrang, Ne Kayumars qoldi, nu Hushang.
Tahmuras	"Sab'ai sayyor"	Ibrat	Qani Tahmurasu qani Jamshid? Bordilar borcha dahrdin navmid.
Juna	"Sab'ai sayyor"	Ibrat	Adlu insof o'ub sifoti aning, Shohlar ichra Juna oti aning.
Faridun	"Sab'ai sayyor"	O'rnak	Ganj qo'ysam edi Faridundek, Naqdlar ko'msam erdi Qorundek.
Zahhok	"Hayrat ul-abror"	Zolim	Zulmda Zahhokligi bilgurub, Ikki yilon egnida xalqa urub.
Iskandar	"Saddi Iskandariy"	Ibrat	Ne iqlim, balkim jahon kishvari, Ki topmish edi fathi Iskandariy.
Manuchebr	"Saddi Iskandariy"	O'rnak	Manuchebr bo'ldi valiyahd anga, Ki masnad edi bu kuhan mahd anga.
Kayqubod	"Saddi Iskandariy"	Ibrat	Bulardin burung'ini bil Kayqubod,

			Ki erdi xiradmandu odil nihod.
Afrosiyob	“Saddi Iskandariy”	Tanqid	Yana shohlig‘ qildi Afrosiyob, Vale qildi Eronni zulmi xarob.

Adabiy asarlarni, masalan Alisher Navoiy “Xamsa”si tarkibidagi dostonlarni o‘rganishda yuqorida sanab o‘tilgan metodlar o‘quvchiga nafaqat bilimlar beradi va tarbiyalaydi, balki aqliy faoliyatga ham yo‘naltiradi. Masalan, biz hozir ko‘rib chiqadigan **“Tadqiqot va loyiha”** usuli asarni o‘zlashtirish darajasining eng yuqori cho‘qqisi hisoblanadi. Bu usul bilan dars o‘tilganda o‘quvchilar olgan bilimlari asosida hali o‘rganilmagan kichik bir masala ustida yakka yoki birgalashib izlanish olib borishadi, masala yechimiga doir keltirilgan taxminni izlab topilgan dalillar asosida to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini tekshirishadi va isbotlashadi.

Usulning bosqichlari quyidagicha tashkil etiladi:

- darsda hammada qiziqish uyg‘otadigan biror geometrik shaklning xossasi yoki u haqidagi masalani qo‘yish;
- uni o‘rganish, tadqiq qilish uchun ma‘lumotlar bazasini to‘plash;
- muammo yoki masalaning yechishga oid taxminlar, bashoratlar qilish;
- har bir bashoratning qanchalik to‘g‘riligini to‘plangan ma‘lumotlar asosida tahlil qilish va isbotlash;
- xulosa chiqarish;
- sinf oldida taqdimot qilish.



Ma‘lumki, o‘qituvchi o‘z ish jarayonida turli usullarni qo‘llab, sinab ko‘radi. Ta‘limda yaxshi natija bermaydigan usuldan voz kechadi, samara bergan usulni

tanlab oladi va takomillashtirib boradi. Yuqorida keltirib o'tilgan usullarning barchasi o'quvchilarga ijobiy ta'sir qiladi, natijada sinfdagi har bir o'quvchi Navoiy "Xamsa"sidagi dostonlarni yetarlicha o'zlashtiradi hamda doston qahramonlariga yaqinlashtiriladi.

Adabiyot darsida o'qituvchilar o'quvchilariga yuqorida keltirilgan namunadagidek evristik xarakterdagi topshiriqlarni imkon qadar ko'proq taqdim etishlari kerak. Olib borilgan kuzatishlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, o'quvchilar bilan muntazam tarzda evristik topshiriqlar ustida ishlash ularning matematika, ona tili kabi o'quv predmetlariga bo'lgan qiziqishlarini oshirish bilan bir qatorda aqliy, ijodiy hamda o'quv faolligini tarkib toptirishga xizmat qiladi.

Tabiiyki, evristik ta'lim an'anaviy ta'lim o'rnini to'liq egallay olmaydi, lekin undan o'quvchining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun an'anaviy usullarga qo'shimcha sifatida foydalanish mumkin. Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, yuqorida ish jarayonida qo'llab kelingan bu usullar o'zini samarali natijalarini berib keldi.

Adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2020.
2. Alisher Navoiy. Layli va Majnun. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2020.
3. Alisher Navoiy "Sab' ai Sayyor" dostoni. – Toshkent: G'afur G'ulom, 1991.
4. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. – Toshkent: G'afur G'ulom, 1991.
5. Qozoqboy Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosh, 2016. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Kamalak.
6. 8-sinf adabiyot darsligi (I qism) [Matn]: darslik/Nurmuhammadov J, Qambarova S, Olimjanov O, Yuldasheva M, Inomjonova S. – Toshkent: Adast poligraf, 2022. – 204 b.

O'QUVCHILAR MUTOLAA MADANIYATINI OSHIRISH YUZASIDAN MULOHAZALAR

Dilafroz Meliboyeva

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU
O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi

1-bosqich magistranti

Annotatsiya

Maktab o'quvchilarining mutolaa madaniyati masalasi bugungi kun tartibida turgan dolzarb muammolardan biridir. Maqolada 9-sinf adabiyot darslarida sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarini o'tkazish yuzasidan tavsiyalar berilgan. Muayyan badiiy-asarlarning qisqacha mazmuni keltirilgan.

Kalit so'zlar: *adabiyot, mutolaa, roman, badiiy asar, tarixiy asar, kitobxon*